Hamkorlik- rivojlanish asosi

2023-yil 12-14-aprel kunlari Toshkentda yosh tadqiqotchilar uchun “Research in action - 2023” uch kunlik xalqaro konferensiya bo‘lib o‘tdi. Tadbir Kembrij Universiteti, British Management Universiteti, O‘zR Fanlar akademiyasining Eng yangi tarix markazi, NGGTU va boshqa hamkorlar tomonidan tashkil etilgan. Konferensiya ochilishida professor S. Saksena (Kembrij University), professor S. Ozog (British Management University), professor M. Rahimov (O‘zR Fanlar akademiyasining Eng yangi tarix markazi), professor X. Hamidov (NGDTU) so‘zga chiqdilar. Bir necha kun davomida O‘zbekiston, Qozog‘iston, Buyuk Britaniya, AQSH, Xitoy va boshqa mamlakatlarning 50 dan ortiq tajribali va yosh olimlari fanlararo tadqiqotlarning turli masalalarini muhokama qildilar. Shuningdek, konferensiyada Kembrij universitetining xalqaro loyihasi va Eng yangi tarix markazining fundamental loyihasi bo‘yicha tadqiqot natijalarini taqdim etildi. Umuman olganda, tadbir juda muvaffaqiyatli o‘tdi, turli mamlakatlardagi ilmiy tadqiqotlar natijalari bilan bo‘lishishga imkon berdi, olimlarning akademik integratsiyasiga va yosh tadqiqotchilarning mahoratini oshirishga yordam berdi.